




Qushlar kuzatuv taqvim

	Y	F	M	A	M	I	I	A	S	O	N	D
Zarafshon qirg'ovuli												
Oqqanot qizilishton												
1 Buxoro chittagi												
Soz bo'ktargisi												
Tosh qirg'iy												
Jig'oltoy												
Gov kaplar												
O'rta Osiyo bulbul												
Kul rang qarqara												
Katta oq qarqara												
Oddiy chigirtchi												
2 Havorang ko'ktarg'oq												
3 Sog'												
Qora shaqshaq												
Qizilto'sh												
Yurok												
Sariq bosh korolek												
Qichitqon												
4 Qizil yelkali qizilquyruq												



Gullash va meva berish taqvim

	Y	F	M	A	M	I	I	A	S	O	N	D
1 Kessellring sarvinjoni												
2 Ingichka bargli jiyda												
Chakanda												
Qiltiq tukli yul'gun												
Turkiston do'lanasi												
Itburun na'matak												
Qizil zirk												
Kumushrang ching'il												
Yalong'och shirinmiya												



Bog'ning maqsad va vazifalari

- ▶ To'qay o'rmonlarini tiklash va saqlash, ilmiy tadqiqotlar o'tkazish, ekologik ta'limni rivojlantirish va ekoturizmni rivojlantirish;
- ▶ **Buxoro bug'usi, Zarafshon qirgovuli, O'rta Osiyo qunduzini** saqlash va ko'paytirish;
- ▶ yovvoyi hayvonlarning tabiiy yashash joylarini muhofaza qilish;
- ▶ to'qay o'simliklarini, xususan, **turang'il** va dorivor o'simlik — **chakandani** saqlash;
- ▶ **jayralar** populyatsiyasini tiklash va **O'rta Osiyo toshbaqasining** sonini oshirish.



Zarafshon milliy tabiat bog'i har kuni
08:00 dan 17:00 gacha ochiq.

Suratlar: N. Marmazinskaya,
B. Mardonov, R. Granovskaya

📍 Joylashuv



📌 Зарафшанский национальный природный парк

📷 zarafshonmilliytabiatbogi

☎ +998 93 995-71-46



ZARAFSHON MILLIY TABIAT BOG'I

QUSHLAR TURLARINING KO'PLIGI
VA KAMYOB QUSHLAR MAVJUDLIGI
TUFAYLI ZARAFSHON BOG'I YIL
DAVOMIDA QUSH KUZATUVCHILARI
ORASIDA JUDA MASHHUR.



Tarixi

Zarafshon daryosi qirg'oqlarini mustahkamlash maqsadida to'qay o'rmonlaridan iborat bo'lgan yerlar Samarqand o'rmon xo'jaligi tasarrufiga o'tkazilgan

1948

hudud O'zbekistonning Muhim ornitologik hududlari (Important Bird Areas – IBA) ro'yxatiga kiritilgan

2008

1975

to'qay o'rmonlari va Zarafshon qirg'ovulini muhofaza qilish maqsadida qo'riqxonaga tashkil etilgan

2018

qo'riqxonaga negizida Zarafshon milliy tabiat bog'i tashkil etilgan

Hududi

Bog' hududi Tojikiston davlat chegarasidan boshlanadi va Zarafshon daryosi bo'ylab janubi-sharqdan shimoli-g'arbga tomon 300–1500 metr kenglikdagi tor chiziq tarzida 30 km masofaga cho'zilgan.

Umumiy maydoni — 5234 gektar. Shundan: 1400 gektari daraxt va butazor to'qay o'rmonlari — bu quyi qism. Qolgan qismi Turkiston va Zarafshon tizmalari tutashgan hududdagi shag'alli va yarim sahro tekisliklari — yuqori qism.

To'qaylar — Markaziy Osiyodagi doimiy yashovchi daraxtlar bo'ylarida o'sadigan noyob o'ziga xos manzaraga ega o'rmonlardir.



ZARAFSHON QIRG'OVULI — ZARAFSHON DARYOSI YODIYUSIGA XOS ENDEMIK QUSH.

O'simliklari

Bog' hududida 300 ga yaqin o'simlik turi o'sadi. Asosiy daraxt turlari: turang'il, Turkiston do'lanasi, jung'or va oq tol, ingichka bargli jiyda. Butalardan: qiltiq tukli yulg'un, kumushrang ching'il, chakanda o'sadi.

Hayvonlari

Zarafshon bog'ida yilning turli fasllarida 200 dan ortiq qush turi uchraydi. Zich o'sgan chakalakzorlar qushlar uchun ajoyib pana joy va yashash joyi bo'lib xizmat qiladi. Yirtqich hayvonlardan: shoqol, karaganka-tulkisi, cho'l va qamish mushugi, bo'rsiq, sassiqko'zan, kamdan kam hollarda — olako'zan va larcha uchraydi. Bulardan tashqari milliy bog'da tolay tovushqoni, quloqdor tipratikan, tamarisk qum sichqoni uchraydi. Eng yirik hayvonlardan — Markaziy Osiyoga xos endemik kenja tur Buxoro bug'usi uchraydi.



Hayvonlar soni va ularning faolligi foto kamera tuzoqlari va mavsumiy monitoringlar orqali aniqlanadi.



SHOQOLLAR KO'PINCHA DARYONING QURUQ O'ZANLARI VA OCHIQ MAYDONLARDA OV QILADI.

Reabilitatsiya markazi

Bog'da kichik reabilitatsiya markazi mavjud. Uning vazifasi: hududdan yo'qolgan hayvon turlarini ko'paytirish, jarohatlangan hayvonlarni davolash. Markazning eng ko'p "bemor"lari — katta yirtqich qushlar.



REABILITATSIYA MARKAZIDAGI BEMOR CHO'L BURGUTI.